

**O'ZBEKISTON VA MARKAZIY OSIYO: MINTAQAVIY IQTISODIY
INTEGRATSIYA IMKONIYATLARI**

Xalmatjanov Farxod Maxamatjanovich

Alfraganus universiteti

Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi

Abduraxmonov Shohruh Sherzod o'g'li

Alfraganus universiteti

Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy

munosabatlar yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlaridagi o'rni, mavjud imkoniyatlari va istiqbollari tahlil qilinadi. Mintaqa davlatlari o'rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar, transport-logistika infratuzilmasining uyg'unlashuvi, energetika va suv resurslaridan foydalanish kabi ustuvor yo'nalishlar integratsiyaning asosiy omillari sifatida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish yo'lida mavjud to'siqlar, muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikr yuritiladi. Maqolada iqtisodiy geografik yondashuv asosida O'zbekistonning tashqi iqtisodiy strategiyasi, qo'shni davlatlar bilan o'zaro manfaatli sheriklik munosabatlari va barqaror rivojlanishga erishish imkoniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.*

Kalit so'zlar: *O'zbekiston, Markaziy Osiyo, iqtisodiy integratsiya, mintaqaviy hamkorlik, savdo aloqalari, energetika, suv resurslari, iqtisodiy geografiya, barqaror rivojlanish.*

Kirish

O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasi, tarixan, iqtisodiy va savdo aloqalari o'rtasida muhim o'rin tutgan hududlardan biri hisoblanadi. 1991-yilda Sobiq Sovet Ittifoqining parchalanishi va mustaqillikning e'lon qilinishi bilan Markaziy Osiyo mamlakatlari, shu jumladan, O'zbekiston o'z iqtisodiy siyosatini va tashqi aloqalarini mustaqil ravishda shakllantira boshladi. Biroq, mintaqaviy iqtisodiy



integratsiya jarayoni bir qator siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy omillar sababli sekin rivojlandi. Yalpi ichki mahsulotning past o'sish sur'ati, savdo-iqtisodiy aloqalarning yetarli darajada rivojlanmasligi, transport-logistika infratuzilmasining muammolari va ayrim siyosiy to'siqlar mintaqaviy integratsiyaning tezlashishiga xalaqit berdi.

Biroq, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi aloqalar va hamkorlik keskin o'smoqda. O'zbekistonning mintaqaviy integratsiya jarayonlariga faol qo'shilishi, tashqi siyosatda ochiqlikni ta'minlash va mintaqaviy muammolarni birgalikda hal qilishga intilish, iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan yangi strategiyalarni ishlab chiqishga olib keldi. Shu bilan birga, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning istiqbollarini baholash, nafaqat savdo va investitsiya sohalarida, balki transport va energetika tarmoqlarida ham keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Markaziy Osiyoning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi, ayniqsa, energetika va suv resurslari bo'yicha hududning strategik ahamiyati, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarni taqdim etadi. O'zbekiston va uning qo'shni davlatlari o'rtasidagi transport-logistika tizimini rivojlantirish, energetika sohasida hamkorlikni kengaytirish, savdo-alloqalarini mustahkamlash mintaqaviy iqtisodiy integratsiyaning asosiy ustuvor yo'nalishlari sifatida qaralmoqda.

Bundan tashqari, global iqtisodiyotdagi o'zgarishlar, yangi bozorlar va texnologiyalar, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va integratsion tashkilotlarga qo'shilish imkoniyatlari O'zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy o'sishini ta'minlashga yordam beradi. Mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash, mintaqada davlatlari o'rtasida iqtisodiy barqarorlikni oshirish va ijtimoiy taraqqiyotga erishish uchun yangi yondashuvlar ishlab chiqish zarur.

ASOSIY QISM:

O'zbekistonning geografik joylashuvi Markaziy Osiyo mintaqasida uni tabiiy transport va savdo markaziga aylantiradi. Shimolda Qozog'iston, janubda Afg'oniston, sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda Turkmaniston bilan chegaradosh bo'lgan bu davlat mintaqaviy tranzit yo'llarining kesishgan nuqtasida



joylashgan. Bu holat, ayniqsa, xalqaro transport yo'llarining rivojlanishi va savdo oqimlarining boshqaruvida strategik ustunlik beradi. Geoiqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan bu pozitsiya orqali O'zbekiston butun mintaqani yagona iqtisodiy makonga birlashtirish imkoniyatiga ega.

Transport-logistika infratuzilmasi integratsiyaning eng muhim tayanchlaridan biridir. "Xitoy–Qirg'iziston–O'zbekiston" temiryo'l loyihasi, shuningdek "Trans-Afg'on" yo'lagi orqali Hind okeaniga chiqish imkoniyati mintaqaning tashqi bozorlarga chiqishini osonlashtiradi. CAREC dasturi doirasida transport tarmoqlari va bojxona nazorat punktlarini uyg'unlashtirish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu tashabbuslar savdo jarayonlarini soddalashtirib, tovar aylanishining oshishiga xizmat qilmoqda.¹ Bundan tashqari, "Toshkent-Andijon-O'sh-Irkeshtom" xalqaro avtomobil yo'lining modernizatsiyasi, "Navoiy" logistika markazining rivojlanishi, O'zbekistonning mintaqaviy transport tizimida tranzit nuqtasi sifatida o'rnini yaxshigina kuchaytiradi. Bu esa nafaqat mamlakat ichki savdo hajmini, balki xalqaro yuk tashish salohiyatini ham oshiradi. Energetika integratsiyasi – gaz, elektr energiyasi va gidroresurslardan foydalanish bo'yicha hamkorlik – O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi ishonch muhitini kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega. Markaziy Osiyoda suv-energiya zanjiri davlatlar o'rtasida bog'lanib ketgan: tog'li hududlar (Tojikiston, Qirg'iziston) suv manbalariga ega bo'lsa, tekislikdagi davlatlar (O'zbekiston, Qozog'iston, Turkmaniston) qishloq xo'jaligi va sanoat uchun suvga muhtoj. O'zbekiston ushbu sohada ijobiy muloqot va barqaror mexanizmlarni ilgari surmoqda. Misol uchun, Tojikiston bilan Rog'un GES qurilishi masalasida olib borilayotgan muzokaralar, Qirg'iziston bilan elektr almashinuvi mexanizmlari, Turkmaniston bilan gaz yetkazib berish bo'yicha kelishuvlar mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonning mintaqaviy savdo aloqalari yildan-yilga kengayib bormoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonning Qozog'iston bilan savdo hajmi 4,5 mlrd dollarga, Qirg'iziston bilan 1,3 mlrd dollarga, Tojikiston bilan esa 700

¹Asian Development Bank (2020). CAREC Regional Cooperation Strategy.



mln dollarga yetgan. Bu ko'rsatkichlar, bir tomondan, bojxona rasmiylashtiruvidagi soddalashtirish, ikkinchi tomondan esa savdo-siyosiy aloqalarning mustahkamlanishi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo bitimlarining kuchaytirilishi, "erkin savdo zonalari" tashkil etilishi, o'zaro investitsiyalar oqimini rag'batlantirish ham integratsiyani kuchaytiruvchi omillardandir. O'zbekiston aynan mana shu yo'nalishlarda ijobiy ko'rsatkichlarni namoyon etmoqda.²

Mintaqaviy integratsiyaga to'sqinlik qilayotgan asosiy omillar ham yo'q emas, bular:

- huquqiy me'yorlardagi tafovutlar;
- bojxona tizimidagi kechikishlar;
- yo'llar va temiryo'llar infratuzilmasining turlicha holati;
- siyosiy ishonchning doimiy bo'lmasligi.

JST (2022) hisobotida bu muammolar aniq ko'rsatib o'tilgan. Ularni bartaraf etish uchun quyidagi chora-tadbirlar taklif qilinadi: yagona elektron bojxona tizimini joriy qilish, transport yo'llarini modernizatsiyalash, transchegaraviy iqtisodiy zonalarni yaratish, raqamli integratsiya tizimlarini ishlab chiqish va siyosiy dialogni kuchaytirish.³ Shu bilan birga, mintaqadagi ishonch va o'zaro hurmatga asoslangan aloqalar iqtisodiy integratsiyani barqaror va davomli qiladi.

O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlarida yetakchi o'rin egallab, mintaqaning raqobatbardosh va barqaror taraqqiyotiga xizmat qilmoqda. Transport, savdo, energetika va iqtisodiy siyosatdagi

² Rustamov, O. (2023). O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo hajmi va iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 4(2), 25–37.

³ World Trade Organization. (2022). Trade Policy Review: Central Asia Regional Overview. Geneva: WTO.



islohotlar orqali O'zbekiston integratsiyani nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtirishga intilmoqda.

XULOSA

Mintaqaviy integratsiya O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Savdo hajmining oshishi va transport infratuzilmasining yaxshilanishi milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshirdi. Biroq, bojxona to'siqlari va tashqi siyosiy muammolar integratsiyaning rivojlanishini sekinlashtirishi mumkin. Kelgusida umumiy savdo siyosatini ishlab chiqish va birgalikda infratuzilma loyihalarini amalga oshirish mintaqadagi iqtisodiy integratsiyani yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Mintaqaviy integratsiya O'zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. Qo'shni davlatlar bilan hamkorlikda savdo va transport aloqalarini rivojlantirish, umumiy bozorlarni kengaytirish va energetika sohasida ko'proq hamkorlik qilish mintaqa barqarorligini ta'minlaydi. Xulosa o'rnida yana shuni aytib o'tishim kerakki, ushbu tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

✓ Yagona raqamli platforma yaratish, bu o'z navbatida Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida savdo, bojxona, logistika va investitsiya axborotlarini uzatish uchun yagona raqamli platforma joriy etilishi integratsiyani tezlashtiradi.

✓ Kadrlar almashinuvi yanada kuchaytirish va qo'shma ta'lim dasturlarini yo'lga qo'yish integratsiyani chuqurlashtirish uchun mintaqa davlatlari o'rtasida iqtisodiyot, logistika, energetika sohalarida malakali mutaxassislar tayyorlash hamkorligini yo'lga qo'yish zarur.

Kelajakda O'zbekiston o'z integratsiya strategiyasini kuchaytirib, mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikning yetakchi ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Asian Development Bank (2020). CAREC Regional Cooperation Strategy.
2. Rustamov, O. (2023). O'zbekiston va qo'shni davlatlar o'rtasidagi savdo hajmi va iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnal, 4(2), 25–37.



3. World Trade Organization. (2022). Trade Policy Review: Central Asia Regional Overview. Geneva: WTO.